
QUVASOYLIK YOSHLAR "YOSHLAR OVOZI” TANLOVINING RESPUBLIKA BOSQICHIDA ISHTIROK ETISH IMKONIYATINI QO’LGA KIRITISHDI

“Yoshlar ovozi” tanlovining Farg’ona viloyati hududiy bosqichi bo’lib o’tdi.

Tanlovda farg’onalik o’g’il-qizlar 3 yosh toifasida, to’rtta yo’nalish – opera, baxshichilik, an’anaviy ijro hamda estrada yo’nalishlarida o’z iqtidorlarini namoyish etishdi.

E’tiborlisi, an’anaviy ijro yo’nalishida 16-22 yosh toifasida Layloxon Halilova, estrada yo’nalishida 23-30 yosh toifasida Ulug’bek Hoshimov g’oliblikni qo’lga kiritdilar. Endilikda ular tanlovining Respublika bosqichida viloyatimiz sharafiga himoya qilishadi.

Shuningdek, tanlovning viloyat bosqichida yana bir qator quvasoylik yoshlar ham munosib ishtirok etdilar va yuqori natijalarni ega chiqdilar.

[Бизни ижтимоий тармоқларда кузатинг Facebook,](#)
2024-04-22 10:36:15